

## O'ZBEK TILI: KECHA VA BUGUNI

Sobirov Z.N.

Oriental universiteti

“Tarix kafedrasi” o‘qituvchisi

Yangilanayotgan O‘zbekistonning rivojlanish tamoyillari belgilab qo’ylgan har bir sohasi o‘z taraqqiyotida shiddat bilan davom etar ekan, ayni paytda, til ham e’tiborga muhtoj bo’lib turgani va bu borada ham tub islohatlar amalga oshirilayotgani ma’lumdir.

Hazrat Alisher Navoiy: “Ko’ngil mahzanining qulfi til, ul mahzanning kalitin so’z bil” deganlarida qanchalar haq edilar. Dunyoda inson zoti yaratilibdiki, bir-biri bilan gaplashadi, so’zlashadi, o’zaro muomalada bo’ladi. Bunda tilning o’rni beqiyos, albatta. Inson lisoniy qobiliyati orqali boshqa tirik jonzotlardan farq qiladi. Dunyoda tillar ko’p, lekin har bir xalq, har bir millat uchun o’z tili qadrdon va sevimli, chunki shu tilda u bemalol muloqot qiladi, o’z fikr-tuyg’ularini erkin ifoda etadi. Haqiqadan ham, til inson uchun berilgan buyuk ne’mat, u milliy madaniyatning ham muhim tarkibiy qismidir. U nafaqat aloqa quroli, balki inson shaxsini fazl-u kamolga yetkazuvchi, uning xulqi-odobi, insoniy xislat va fazilatlari uyg’unligini ta’minlovchi ibrat va tarbiya manbai hamdir. Zero, u xalqqa kuch-quvvat, ruhiy barkamollik bag’ishlaydi. Bundan tashqari u inson faoliyatida borliqni bilish, fikr almashish, jamg’arilgan bilimlarni avloddan avlodga yetkazish vositasidir. Tilda millatning boryo’g’i, o’y-fikri, dunyoqarashi, orzu-umidlari, Vatani, his-tuyg’ulari aks etadi. Har bir til asrlar davomida rivojlanib, boyib boradi.

Ona tili – millatning ruhi, uning or-nomusi, ma’naviy qiyofasi, orzu-umidlarning namunasidir. Ona tili millatning birligi va birdamligining timsolidir. U millatni yagona xalq sifatida o’z atrofida birlashtiradi va dunyoda borligini ta’min etadi. Farzand tarbiyasida onaning o’rni beqiyos bo’lganidek, insonning hayotda o’z o’rnini topishida, kamolotga erishuvida tilning o’rni ulkan ahamiyatga ega. Shu bois tilni, onaga qiyoslab ona tili deb ataydilar. Turk dunyosining buyuk ma’rifatparvar ijodkori Ismoilbek Gaspirali aytganidek: “Millatning ikki asosi bordur. Bu ularning tili va dinidur. Agar millat hayotidan shu ikkisidan biri sug‘urib olinsa, bu millat tanazzulga yuz tutur”. Suvsiz daryo bo’lmaganidek, tilsiz millat ham vujudga kelmaydi. Biror millatga mansub bo’lgan til, o’sha millat bilan yashaydi va bardavom bo’ladi.

Ota-bobolarimiz qadimdan tilni asrab avaylashgan, rivojlantirishgan. Masalan Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Lutfiy va boshqalar o’zbek tilining rivoji uchun beqiyos hissa qo’shganlar. So’z mulkinining sultonı buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o’zi yashagan murakkab davr – XV asrda tilimiz himoyasiga otlanib, turkiy til o’z imkoniyatlari jihatidan boshqa tillardan sira qolishmasligini ilmiy va

amaliy jihatdan isbotlab berdi. O‘zining “Xamsa” kabi shoh asarini turkiy tilda yaratdi. Hozirda ham shoirlarimiz o’zbek tilining boyligini, uning buyukligini namoyon etuvchi asarlar yaratmoqdalar. Boisi buyuk adabiyoti bo‘lgan xalqning buyuk tili ham bo‘ladi.

Ona tiliga hurmat, avvalo, unung sofligini ta’minlashga intilish orqali yuzaga chiqadi. Til sofligi dolzarb masala sanaladi. Ayni kunda til mavzusi barchaning diqqat markazida. Tilimiz taqdiri va tarixi bilan qiziqqan har bir vatandoshimiz bu mavzuga qo’l urmoqda. Chunki bunga majbur bo’lyapmiz. Misli tilloga teng ona tilimiz qadrini bilmayapmiz. Ko’cha-kuyda g’aliz va o’rinsiz qo’llanilayotgan so’z va iboralar odamning ta’bini xira qiladi. 1989-yili O’zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi amalda tilimiz ravnaqi uchun butunlay yangi davrni boshlab bergen edi. Mana qariyb 30 yildan oshdi. Vaholanki, biz haligacha ona tilimizning ichki imkoniyatlardan, adabiy tilimizning tiganmas, beba ho boyligidan to’liq foydalanayotganimiz yo’q. Shu asnoda “Nega ko’cha qoidalarini buzganlarga hushtak chalinadi-yu, nega o’z tilimizni buzib gapityotganlarga hushtak chalinmaydi” degan purma’no gaplar ko’nglingdan o’tadi. Demak, biz shunday yoshlarga befarq bo’lmasdan ularni to’g’ri va ravon gapirishga, tilimizga nisbatan beodoblik qilmaslikka undashimiz zarur. Shu bois, ona tilimizning sofligini saqlash uchun nimalarga e’tibor berishimiz kerak? Birinchidan, ijtimoiy sohalardagi ko’plab atamalarni o’zbekchalishtirish, yangi atamalarga mos muqobil so’zlarni toppish, sheva so’zlarini o’rganishni takomillashtirish, tilimiz sofligini ta’minlash uchun zaruriy choralarни ko’rishimiz kerak. Negaki, ona tilni ulug’lash, asrab-avaylash o’sha tilda so’zlashadigan har bir insonning burchidir.

O’zbek tilining lug’at boyligi shu qadar kengki, bir fikringizni bir qancha yo’sinda ifoda etish mumkin. bitta ma’noga ega bo’lgan tushunchani bir nechta so’zlar orqali ifodalash mumkin. Umuman, o’zbek tili o’z imkoniyatlari jihatidan dunyodagi boy tillar qatoridan munosib o’rin olish uchun bellasha oladi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo’lgani kabi tilimiz taraqqiyotida muhim o’zgarishlar yuz berdi. O’zbek tilining xalqaro miqyosda obro’si oshdi. “Davlat tili haqida”gi qonun ona tilimizning bor go’zalligi va jozibasini to’la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug’atlar, darslik va o’quv qo’llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so’z va so’z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo’llaniladigan so’zlarni o’z ichiga olgan besh jildlik “O’zbek tilining izohli lug’ati” bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridandir.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Bugungi kunda jahoning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimiz yutuqlari, sportchilarimiz g’alabalari

sharafiga o‘zbek tilida madhiyamiz kuylanayotgani juda quvonarlidir. Biz o‘z ona-tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz, go’zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o‘z hissamizni qo’shishimiz kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Ismoil G’aspirali / Ta’lim va tahsil foydasi. – İstanbul: Ötüken Neşriyat, 2014.
2. Alisher Navoiy Mahbub ul – qulub. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.